

## PEDAGOGIK KASBIY KOMPETENTLIK VA UNGA XOS SIFATLAR

Guliston davlat pedagogika instituti

Pedagogika Yo'nalishi talabasi

**Sayliyeva Umida Sodiqovna****Annotation**

Mazkur maqolada pedagogik kasbiy kompetentlik tushunchasi, uning asosiy tarkibiy qismlari va sifatlari batafsil yoritilgan. Pedagogning kasbiy mahorati va shaxsiy fazilatlari o'rtaqidagi uyg'unlik ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash, o'qituvchilarning refleksiv va kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatib berilgan. Maqola ta'lim tizimida pedagoglarning kasbiy rivojlanishini strategik maqsad sifatida belgilash zaruratini asoslaydi. Shu bilan birga, pedagogik kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy ahamiyati yoritilgan.

**Annotation**

В данной статье подробно раскрыто понятие педагогической профессиональной компетентности, её основные составляющие и качества. Рассматривается гармония между профессиональным мастерством педагога и его личными качествами как основной фактор успеха в образовательном процессе. Также в статье подчёркивается значение использования инновационных технологий в образовательном процессе, развития рефлексивных и коммуникативных навыков учителей. Статья обосновывает необходимость стратегической задачи повышения профессионального развития педагогов в системе образования. Кроме того, освещается социальное, экономическое и духовное значение развития педагогической компетентности.

**Abstract**

This article provides a detailed analysis of the concept of pedagogical professional competence, its main components, and qualities. The harmony between a teacher's

professional skills and personal attributes is viewed as a key factor for success in the educational process. The article also highlights the importance of applying innovative technologies in education and developing teachers' reflective and communicative skills. It substantiates the necessity of prioritizing the professional development of educators as a strategic goal in the education system. Additionally, the article emphasizes the social, economic, and moral significance of enhancing pedagogical competence.

**Kalit so'zlar:** Kompetentsiya, pedagog, pedagogik kompetentlik, refleksiv, empatiya

Bugungi kunda ta'lif tizimi oldida zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash vazifasi turibdi. Ta'lif sohasida olib borilayotgan islohotlar pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu nafaqat ta'lif sifatini yaxshilash, balki jamiyatning ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyotiga ham xizmat qiladi.

Pedagogning kasbiy kompetentligi ta'lif jarayonida o'quvchilarga samarali bilim va ko'nikmalarini yetkazish, ularda tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va mas'uliyatlilik kabi fazilatlarni shakllantirish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy dunyo talablariga mos ravishda pedagog o'z kasbiy faoliyatida yangi texnologiyalarni qo'llash va innovatsion yondashuvlarni amalga oshirish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

"Kompetentsiya" tushunchasi (lotincha competence "mos kelmoq" ma'nosini beradi) quyidagi mohiyatlarni ifodalaydi. Kompetentsiya so'zi keng ma'noda – umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va ko'nikmalarini amaliy tajribada qo'llay olish qobiliyati anglatadi. Shuningdek, Kompetentlik tushunchasi ta'lif sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli

kompetentlik "noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini

qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi yo‘l

tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to‘la ma’lumotlardan foydalanishda, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik”ni anglatadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida” 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-sonli qarorida belgilangan vazifalar muhim ahamiyat kasb etadi {1}

**Pedagogik kompetentlik** — o‘qituvchining o‘quv jarayonida samarali ishlashini ta’minlaydigan bilimlar, ko‘nikmalar, malakalar va psixologik qobiliyatlarning birligi sifatida qaraladi. Pedagogik kompetentlikning tarkibi o‘qituvchining kasbiy bilimlarini, metodik yondashuvlarni, pedagogik uslublarni, o‘quvchilarining individual xususiyatlarini tushunish va unga mos ta’lim jarayonini tashkil etish qobiliyatini o‘z ichiga oladi. Shuningdek , pedagogik kompetentlik nafaqat o‘qituvchining bilim va ko‘nikmalarini, balki uning shaxsiy fazilatlarini ham o‘z ichiga oladi. Bu pedagogning jamiyat oldidagi mas’uliyatini chuqur his qilishi, doimiy o‘zini rivojlantirishga intilishi va o‘quvchilarga namuna bo‘lish qobiliyatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, pedagogik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat alohida shaxslar uchun, balki butun ta’lim tizimi uchun strategik ahamiyatga ega.

O‘qituvchi nafaqat o‘zining sohaga oid bilimlarini o‘quvchilarga yetkazishi kerak, balki pedagogik vazifalarni bajarishda o‘quvchilar bilan samarali aloqa o‘rnatishi, ularga motivatsiya bera olishi, darsni qiziqarli va samarali tashkil etishi, shuningdek, o‘quvchilarining shaxsiy ehtiyojlariga javob berish uchun moslashuvchan bo‘lishi lozim. Shuning uchun pedagogik kasbiy kompetentlik o‘qituvchining nazariy bilimlari bilan birga, o‘quvchilar bilan o‘zaro munosabatlar va ta’lim jarayonini boshqarishdagi amaliy ko‘nikmalarni ham talab qiladi. Mazkur kompetentlik o‘qituvchining kasbiy faoliyatidagi samaradorligini belgilaydi va uning ta’lim-tarbiya jarayonidagi muvaffaqiyatining garovi hisoblanadi. Pedagogik kasbiy kompetentlikning muhimligi ko‘plab allomalar tomonidan ta’kidlangan. Masalan, Abu

Nasr Farobiy fikriga ko‘ra, ta’lim va tarbiya — bu jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri bo‘lib, bu jarayonda o‘qituvchining mahorati va shaxsiy fazilatlari hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U pedagogni bilimli va odobli inson sifatida tasvirlab, uning kasbiy faoliyati doimiy ravishda o‘zini takomillashtirishni talab qilishini qayd etadi. Shuningdek, Islom mutafakkiri Al-G‘azoliy ta’lim-tarbiya jarayonida ustozning o‘rnı haqida shunday deydi: "Ustoz o‘z o‘quvchilarining nafaqat bilim olishiga, balki ularda axloqiy fazilatlarni shakllantirishga ham mas’uldir." [2] Bu fikr zamonaviy ta’limda ham dolzarb bo‘lib, pedagogning nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi sifatida faoliyat yuritishi zarurligini ko‘rsatadi.

Bugungi kun mutaxassislari, xususan, V. A. Slastenin, pedagogik kompetentlikni shaxsning o‘z kasbiy faoliyatida innovatsion yondashuvni qo‘llay olish qobiliyati bilan bog‘laydi. Uning fikricha, pedagog o‘z faoliyatini zamonaviy texnologiyalar va metodikalar asosida tashkil qilishi, shuningdek, har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlarini inobatga olishi lozim.

### **Pedagogik kompetentlikning asosiy tarkibiy qismlari**

Bilimlar kompetentligi: pedagogning o‘z fani bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lishi va bu bilimlarni amaliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

Didaktik kompetentlik: ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va boshqarish ko‘nikmalari.

Kommunikativ kompetentlik: o‘quvchilar bilan samarali muloqot qilish, ularga ta’sir o‘tkazish va tushunish qobiliyati.

Innovatsion kompetentlik: zamonaviy texnologiyalar va usullarni ta’lim jarayoniga joriy etish ko‘nikmalari.

Refleksiv kompetentlik: o‘z faoliyatini tahlil qilish va undan to‘g‘ri xulosalar chiqarish qobiliyati.

### **Pedagogik kompetentlikka xos sifatlar**

Pedagogning kasbiy kompetentligi quyidagi sifatlar orqali namoyon bo‘ladi:

Ochiqlik va moslashuvchanlik: yangi bilim va tajribalarni o‘zlashtirishga tayyorlik.

Mas'uliyatlilik: ta'lif-tarbiya jarayonidagi o'z vazifalarini to'liq anglash va bajarish.

Tashkilotchilik: ta'lif jarayonini samarali rejalashtirish va boshqarish qobiliyati.

Empatiya: o'quvchilarni tushunish va ularga yordam berish istagi.

Doimiy o'zini rivojlantirish: yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va amaliyotda qo'llash.

### Xulosa

Pedagogik kasbiy kompetentlik o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va psixologik sifatlarning birlashmasidir. Bu faqat o'quv materiallarini yaxshi bilish emas, balki o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish, samarali muloqot o'rnatish, ta'lif jarayonini boshqarish va yangi pedagogik usullarni qo'llashni o'z ichiga oladi. Pedagogik kompetentlikning rivojlanishi o'qituvchining o'ziga xos sifatlariga, ya'ni kreativlik, moslashuvchanlik, kommunikativlik va mas'uliyatga ham bog'liqdir.

Shuningdek, o'qituvchining shaxsiy sifatlari, pedagogik malakasi va ijtimoiy kompetentligi o'quvchilarning nafaqat bilim olish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ta'lif tizimida pedagogik kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun o'qituvchilarni muntazam ravishda yangilanishlar va zamonaviy metodikalar bilan tanishtirish zarur. Shunday qilib, pedagogik kasbiy kompetentlik faqat o'qituvchining kasbiy mahoratini oshiradigan emas, balki butun ta'lif jarayonini samarali va mazmunli qilishga hissa qo'shadi. Shunday ekan, pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish ta'lif tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. Bu nafaqat o'qituvchilarning kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlaydi, balki jamiyatning ma'naviy va intellektual taraqqiyotiga ham xizmat qiladi. Allomalarning merosi va zamonaviy tajriba uyg'unligi pedagogik kompetentlikni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тўғрисида”ги ПФ-5847-сон Фармони. Қонун хужжатлари тўплами миллий базаси <https://lex.uz/>
2. Imam G’azzoliy “Kimyoi saodat” (Ruh haqiqati) «Adolat» Toshkent 2005
3. Mukarran Ahmedova “Pedagogik kompetentlik” Uslubiy qo’llanma Toshkent-2018
4. Muslimov N.A. va boshkalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. / Monografiya. - T.: "Fan va texnologiya" nashriyoti, 2013. 76-81 b.
5. Muslimov N., Usmonboyeva M., Sayfurov D., To’rayev A. (2015) Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. -Toshkent. 120 b.
6. Axmedova M.T. (2018) Pedagogik kompetentlik. Uslubiy qo’llanma. T.:Nizomiy nomidagi TDPU